



Functional features of apology acts in formal speech

Dilnoza MUROTOVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

10 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

formal speech,
types of communication,
apology expression,
speech culture,
communication.

ABSTRACT

The article analyzes the diversity of communication types throughout human life and their dependence on various factors. Special attention is given to the peculiarities of formal speech, its social significance, and linguistic characteristics. The expression of apologies and politeness in formal speech is examined through linguistic means. The paper also explores theoretical and practical approaches to communication culture and processes.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6/S-pp79-85>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Rasmiy nutqda uzr aktining funksional xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

rasmiy nutq,
muloqot turlari,
uzr ifodasi,
nutq madaniyati,
kommunikatsiya.

Maqolada inson hayoti davomida amalga oshiriladigan muloqot turlarining xilma-xilligi va ularning turli omillarga bog'liqligi tahlil qilingan. Ayniqsa, rasmiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari, uning ijtimoiy ahamiyati va lingvistik tavsifiga e'tibor qaratilgan. Rasmiy nutqda uzr ifodasi va xushmuomalalikning til birliklari bilan ifodalanishi haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari maqolada, muloqot madaniyati va kommunikatsiya jarayonlari bilan bog'liq nazariy va amaliy yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Функциональные характеристики акта извинения в официальной речи

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

официальная речь,
виды коммуникации,
выражение извинений,

В статье анализируется многообразие видов коммуникации в течение жизни человека и их зависимость от различных факторов. Особое внимание уделено

¹ PhD, Teacher, Fergana State University. E-mail: muratovadilnoza2@gmail.com

культура речи,
коммуникация.

особенностям официальной речи, её социальной значимости и лингвистическим характеристикам. Рассматривается выражение извинений и вежливости в официальной речи через языковые средства. Также исследуются теоретические и практические подходы к культуре общения и коммуникационным процессам.

KIRISH

Inson hayoti davomida muloqotning xilma-xil turlariga murojaat qiladi. Muloqot turlarining bir-biridagi farqlanishi kishilarning borliqqa, bir-biriga munosabatlarning bag'oyat ko'p qirrali va turlicha ekanligidan dalolat beradi. Albatta, o'zaro munosabatlarda muayyan muloqot turining tanlanishi, uni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan shaxslar o'rtasidagi aloqa-munosabatlar xarakteriga bog'liq. Muloqot turlaridan biri til vositalariga asoslangan lisoniy muloqot bo'lib, lingvistikaning o'rganish obyekti sanaladi.

Aslida, rasmiy nutq jamiyatda barcha insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega emas deya olmaymiz. Chunki istalgan fuqaroning rasmiy idoralarga ishi tushadi. Xo'sh, rasmiy nutq ko'nikmasini egallash uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim? O'zbek rasmiy nutq odobi deganda nima tushuniladi va unda uzr qanday ifodalanadi?

Rasmiy (arabcha – ma'muriy, ma'muriyatga aloqador)

1. Hukumat, davlat yoki biror tashkilotga oid, shular tomonidan belgilangan. Rasmiy vakil.

2. Hukumat, davlat organlari yoki biror tashkilot tomonidan e'lon qilingan, chiqarilgan, tarqatilgan. Rasmiy ma'lumot. Rasmiy axborot.

3. Qonuniy ravishda tasdiqlangan, rasmiylashtirilgan. Rasmiy hujjatlar. Rasmiy tashkilot.

4. Davlat yo'li bilan olib boriladigan muomala, yozishma va hujjat tiliga xos bo'lgan; maktubiy. Rasmiy uslub [10].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rasmiy nutqda muloqot jarayoni va uning nutqiy vaziyat, shaxs omillari bilan bog'liqligi, nutqiy akt nazariyasiga oid tadqiqotlar maydonga keldi. Jahon tilshunosligida rasmiy nutqning o'rganilishi bo'yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilgan, jumladan, G.A. Dyujenko, A.S. Golovach, P.V. Veselov, V.I. Losev, T.V. Kuznetsova, T.N. Boldirova, M.T. Lixacheva kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa [3], o'zbek tilshunosligida o'zbek adabiy tilining rasmiy-ish uslubini o'rganish bo'yicha ilk qadam D.A. Babaxanova tomonidan qo'yilgan [2].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Rasmiy nutq matnining ixchamligi, mazmuniy to'liqligi va aniqligi ham uning qanday til birliklaridan to'g'ri foydalana olishga bog'liqdir.

Norasmiy nutq do'st, tanish, oila va qarindoshlar doirasida ishlatiladi. Tasavvur qilaylik, ingliz kishisining soati to'xtab qoldi va u vaqtni bilish kerak. U tanishlariga murojaat qilib ko'radi.

What time is it Tom? (Tom, soat necha bo'ldi?) Bu savol norasmiy usulda savol berishga kiradi. Ma'lumki, berilayotgan savol yetarlicha xushmuomalalik tarzida ifodalangan emas, ba'zida qo'pol munosabatdek hisoblanishi ham mumkin.

Xushmuomalalik bilan savol berish bu neytral darajaga kiradi. Agar xuddi shu savol ingliz kishisi tanishidan emas, begonadan so‘rab savol bersa, quyidagicha bo‘ladi:

Excuse me? Could you tell the time please? (Kechirasiz. Iltimos, menga vaqtni ayta olasizmi?) (suhbatdan)

Rasmiy nutqda vaqtni so‘rash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Masalan: firma yoki korxona xodimi boshliq huzuriga kirib, vaqtni bilish uchun soat so‘rashi mumkin emas. Lekin rasmiy darajadagi murojaatda rahbar qo‘l ostidagi ishchi, xodimlardan soatni to‘g‘irlash maqsadida so‘rashi va xodim javob berishi mumkin.

Murojaat mobaynida, odamlarni “*Kechirasiz*” so‘zlari bilan ogohlantirilayotganda, inglizlar “*Pardon me!*” deb murojaat qilishadi.

Shuni ta’kidlash joizki, “*Kechirasiz*” “*Excuse me*” iborasi (*Pardon me, I beg your pardon*) ofitsiant, militsiya xodimi yoki yuk tashuvchiga nisbatan qo‘llanilmaydi. Militsiya xodimlariga – *Officer!*, yuk tashuvchiga – *Porter!*, ofitsiantga – *Waiter!* deb murojaat qilinuvchi maxsus so‘zlar qabul qilingan.

Ma’lumki, muloqot so‘zi arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, uchrashish, ko‘rishish; musobaha ma’nolarini anglatadi [11]. Bugungi kunda ushbu so‘z nutqiy aloqa-aralashuv ma’nosidagi nutqiy muloqotga nisbatan ham ishlatilmoqda. Ayrim manbalarda muloqot termini o‘rnida nutqiy aloqa-aralashuv ma’nosidagi kommunikatsiya termini ishlatiladi. Jumladan, R.O. Yakobson kommunikatsiya terminini nutqiy muloqot ma’nosida ishlatadi. Uning fikricha, olimlar kommunikatsiyani turli jarayonlarni qamrab oluvchi uch darajada tavsiflashadi. Quyi chegara nutqiy axborotni uzatishga asoslangan kommunikatsiya hodisasini qamrab oladi, o‘rta chegara axborot uzatishni til va tildan tashqari vositalar orqali amalga oshiradigan kommunikatsiya jarayonini qamrab oladi; yuqori chegara barcha ijtimoiy kommunikatsiya jarayonini qamrab oladi. Birinchi kommunikatsiya jarayoni lingvistika tomonidan, ikkinchisi semiotika, uchinchi kommunikatsiya jarayoni esa muloqot nazariyasida o‘rganiladi [12].

Muloqot odobi aslida unga yondosh tushunchalar bo‘lgan “muloqot xulqi”, “til madaniyati”, “so‘zlashish madaniyati”, “nutq madaniyati”, “nutq odobi” kabi birliklar bilan bir xil qo‘llanib kelingan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbek tilshunosligida bu mavzu bo‘yicha izlanish olib borgan Sh.Iskandarova jamiyat tomonidan qabul qilingan va qo‘llanilishi zarur bo‘lgan yoki talab etiladigan, suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish va uni kerakli ohangda olib borish uchun ishlatiladigan turg‘un muloqot qoliplarining maxsus milliy kichik tizimlarini nutqiy odat deb va uni nutq madaniyatidan farqlash lozimligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Nutq madaniyati lisoniy bilim va malakalar yig‘indisi bo‘lsa, nutqiy odat ma’lum millat vakillarining atrof-muhit, sharoitlar, urf-odatlar ta’sirida shakllangan bo‘ladi. Nutq madaniyatiga ega bo‘lish uchun shaxs o‘z fikrini to‘g‘ri, ifodali va ta’sirchan holda yetkazish mahoratiga – sanoatiga ega bo‘lmog‘i talab qilinsa, nutqiy odat birliklarini o‘rinli qo‘llash uchun o‘zaro muloqot ishtirokchilarining ma’lum mahoratga ega bo‘lishi muhim emas” [6].

O.Y.Goyxman nutqiy muloqotni kompleks yondashuv asosida o‘rganish lozimligini qayd etadi. Uning fikricha, nutqiy muloqotni o‘rganishga lingvistik (ortologik), psixolingvistik, psixologik yondashuvlar mavjud. Lingvistik yondashuvda muloqot maqsadiga samarali erishish uchun adabiy til meyorlari hamda nutq madaniyati mezonlarini egallash zarurati haqidagi g‘oyani ilgari surishga asosiy e’tibor qaratiladi. Psixolingvistik yondashuvda ikki yo‘nalishni ajratish mumkin – nutqiy muloqot samaradorligi haqidagi qarashlar bilan bog‘liq holda: ritorik – tinglovchi, vaziyat va boshqa omillarga bog‘liq holda nutqiy muloqotning lingvistik tavsifini aniqlash (uning

kompozitsiyasi, til vositalarining tanlanishi va boshqalar), faoliyatli – insonda nutqiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'nikmalar rivojlanganligi darajasini aniqlash. Psixologik yondashuvda nutqiy muloqotning muvaffaqiyati insonning psixologik mexanizmlaridan foydalana olish qobiliyatiga bog'liq degan qarashga asoslaniladi. O.Y. Goyxman nutqiy muloqotni ko'rsatilgan barcha yondashuvlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuv asosida o'rganish lozim degan xulosaga keladi [4].

V.I.I vanova ham nutqiy muloqotning turli sohalar o'rganish obyekti ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha, to'laqonli muloqot bu – kishilar o'rtasida ongli, ratsional tashkil qilingan, maqsadli axborot almashinuv bo'lib, muloqotdoshlarni individuallashtirish, ular o'rtasida hissiy munosabatlarni o'rnatish bilan kechadi.

Olima muloqotning ushbu belgilarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki mantiq, psixologiya, sotsiologiya, muloqot nazariyasi, stilistika va boshqa sohalar predmeti ekanligini qayd etadi [7]. Anglashiladiki, nutq yordamida amalga oshiriluvchi lisoniy muloqot nutqiy faoliyat nazariyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi turli sohalarning o'rganish obyekti sanaladi. Nutqiy muloqot turli kishilar o'rtasida amalga oshuvchi faoliyat turi bo'lgani sababli uni o'rganishga bo'lgan yondashuvlar ham turlichadir. Jumladan, nutqiy muloqot turlari kommunikatsiya ishtirokchilarining ijtimoiy sifatlariga asosan, muloqot ishtirokchilarining soni, muloqotning xarakteri, shakli, maqsadi kabilarga ko'ra farqlanishi mumkin. Nutqiy muloqot kommunikatsiya ishtirokchilarining ijtimoiy sifatleri asosida quyidagi turlarga ajratilishi mumkin: 1) shaxslarning ijtimoiy mavqeiga ko'ra: rahbar va xodim o'rtasidagi nutqiy muloqot, xodimlar o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar; 2) shaxslarning ijtimoiy rollariga ko'ra: ota va ona rolidagi ijtimoiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqot, ona va farzand rolidagi ijtimoiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqot, ota va farzand rolidagi ijtimoiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqot; qaynona va kelin rolidagi ijtimoiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqot; qaynona va kelin rolidagi ijtimoiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar; 3) shaxslarning kasbiy faoliyati, mashg'ulotiga ko'ra: o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nutqiy muloqot; vrach va bemor o'rtasidagi nutqiy muloqot; sotuvchi va xaridor o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar; 4) shaxslarning jinsiga ko'ra: ayol va erkak o'rtasidagi nutqiy muloqot; erkaklar o'rtasidagi nutqiy muloqot; ayollar o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar; 5) shaxslarning yoshiga ko'ra: katta yoshdagi kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot; bolalar o'rtasidagi nutqiy muloqot; o'rta yoshdagi kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot; kichik yoshdagi kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot; kattalar va bolalar o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar; 6) shaxslarning millatiga ko'ra: o'zbek va rus millatiga mansub kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot; qozoq va o'zbek millatiga mansub kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar. Nutqiy muloqot nutq ishtirokchilarining soniga ko'ra ham farqlanadi. Bu belgiga ko'ra: a) ikki kishi o'rtasidagi nutqiy muloqot; b) ko'p kishilar o'rtasida kechadigan nutqiy muloqot turlarini ajratish mumkin. Har qanday nutqiy muloqot kamida ikki kishi o'rtasida amalga oshadi. Bunday muloqot rasmiy nutq turga misol bo'ladi. Ikkinchi turdagi nutqiy muloqotda esa, ya'ni norasmiy nutqda bir necha kishilar ishtirok etishadi. Bunday shaxslar do'stlar, hamkasblar, kursdoshlar, maktabdoshlar yoki boshqa guruh a'zolaridan tashkil topadi.

Ta'kidlaganimizdek, muloqotning xarakteriga ko'ra: a) rasmiy nutqiy muloqot; b) norasmiy nutqiy muloqot turlarini farqlash mumkin. Rasmiy nutqiy muloqot kishilarning rasmiy munosabatlarini aks ettirishga xizmat qilsa, norasmiy nutqiy muloqot qarindoshlar, do'stlar, yoru birodarlarning oilada, ko'cha-ko'yda, ish, o'qish faoliyatida

kuzatiladigan muloqotdir. Nutqiy muloqotning shakliga ko'ra: a) og'zaki nutqiy muloqot; b) yozma nutqiy muloqot; v) elektron nutqiy muloqot turlarini ajratish mumkin. Og'zaki nutqiy muloqot kishilarning kundalik hayotida ko'cha-ko'ya, oilada, mehnat faoliyatida, o'qish jarayonida bir-birlari bilan o'zaro kommunikativ aloqaga kirishuvida amalga oshadi. Og'zaki nutqiy muloqot yozma nutqiy muloqotdan uni tashkil etuvchi nutqiy aktlarining tezkorlik, spontanlik, kutilmaganlik, noizchilik, ohangdorlik, makon va zamonga befarqlik kabi belgilarga egaligi, shuningdek, gavda, bosh, qo'l, oyoq harakatlari, mimik ifoda va ramzlar kabi noverbal vositalar bilan boyitilganligi bilan farqlanadi.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak, uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Agar rasmiy nutq odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, u rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti, ilmiy rahbarning shogirdi bilan muloqoti, doktorning kichik xodim bilan muloqotida yaqqol ko'rinadi. So'zlashuv nutqi va rasmiy nutqning og'zaki jihatlarini o'zaro bog'liq xususiyatlarini ko'p kuzatishimiz mumkin. Mana shu bog'liqliklar ularning mazmunini to'ldirib, oydinlashtirib, ta'sirchanligini yanada oshirishiga xizmat qiladi. Rasmiy nutqqa oid matnlarda aynan so'zlovchining sotsial mavqei yaqqol ko'zga tashlanadi.

“Murojaat bilan undalmaning ifodalanish usul va vositalarida ham, bir tomondan, umumiylik, ikkinchi tomondan, o'ziga xoslik kuzatiladi. Undalma faqat lingvistik usul va vositalar orqali ifodalanadi. Murojaat shakli ham lingvistik usul va vositalar orqali ifodalanadi. Demak, har qanday undalma, ayni paytda, murojaat shakli hamdir. Lekin har qanday murojaat shakli undalma bo'lavermaydi” [1].

Rasmiy nutqning asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi.

– E, uka ...

– Bu odam sizga uka emas, prokuror! Shahar prokuraturasidan! – dedi Hamdam zarda bilan.

– UZR, o'rtoq prokuror, tanimaganini siylamas, degan maqol bor-ku. Bilmasman, kechirasiz. (T.Malik, Shaytanat, 3-qism)

Yuqoridagi parchada “uka”, “o'rtoq prokuror” ham undalma, ham murojaat shakli bo'lib, “kechirasiz” undalma emas, faqat murojaat shaklidir.

Barcha millat vakillari ijtimoiy funksiyalarni bajarish, kommunikativ muloqotni tashkil etishda nutq aktlaridan foydalanadilar va deyarli barcha tillarda nutq aktlarini bevosita ifodalovchi ba'zi fe'llar mavjuddir [13], masalan: kechirim so'rash, shikoyat qilish, xushomad, iltimos qilish, va'da qilish va boshqalar. Ushbu vazifalarni bajaruvchi fe'llar o'zlari bildirayotgan nutqiy aktning lug'aviy ma'nosini o'zida mujassam etgan bo'lsa-da, ular har doim ham oddiy suhbatda nutqiy aktning eng ko'p uchraydigan misollaridan biri bo'lavermaydi. Masalan, og'zaki nutqda kechirim so'rash uchun rasmiy tarzda “Meni kechiring!” iborasidan ko'ra ko'proq uzr iborasini ishlatadilar [9].

Diplomatik yozishmalarda pragmatik maqsadning aniq va ishonchli ifodalanishida hissiy-bo'yoqdor, maqtov va iltifotli so'zlarning ishlatilishi alohida ahamiyatga ega. Ushbu rasmiy matnlarning murojaat qismida “Prezident janobi oliylari”, “Qirol hazrati oliylari”, “Qirolicha hazrati oliyalari”, “Bosh vazir janobi oliylari”, “Hurmatli janob Vazir”, “Hurmatli janob Vakil”, “Hurmatli janob Elchi” kabi birikmalar bilan boshlanishi belgilangan maqsadning aniq bayon qilinishidagi omillardar biridir.

Rasmiy nutqda nutqiy aktlarning ifodalanishida so'zlovchi va tinglovchi ma'lum

nutq vaziyati yoki holatiga qarab, ma'lum bir nutq obyekti orqali o'z fikrini, maqsadini aniq va to'liq bayon qiladi va shu orqali xabar, buyruq, uzr (kechirim) so'rash, iltimos, talab, ba'zi o'rinlarda va'da yoki kafolat kabi ma'nolar orqali nutqiy aktlarni ifodalaydi.

Rasmiy uzr so'rash kommunikativ holatining presuppozitsiyasi shaxslararo muloqotning boshqa holatlarida amalga oshiriladigan profilaktik va tuzatuvchi ssenariylarning amalga oshirilishini belgilaydi; Ayniqsa, ingliz jamiyatida ular boshqa shaxsning shaxsiy makonini yaqindan yoki tasodifiy buzgan taqdirda yaqinlashish vositasiga aylanadi. Bunday holda ingliz kommunikativ madaniyatida yaxshi xulq-atvor va xushmuomalalik deb ataladigan kommunikativ masofani saqlash orqali har qanday vaziyatda har qanday shaxsga hurmat va e'tibor ko'rsatish tushuniladi [8].

Odob qoidalari inglizlarni pragmatikasiga va aybni haqiqiy tan olishga taalluqli bo'lmagan rasmiy uzrlarga doimiy ravishda murojaat qilishga majbur qiladi.

Agar biror kishi o'z maydonida harakat qilganda (masalan, siz ko'cha piyoda yo'lagidan o'tishingiz yoki unga juda yaqin yurishingiz kerak bo'lganda) yoki notanish shaxsning shaxsiy makoniga bostirib kirganda profilaktik kechirim so'rash majburiydir. (*Excuse me! How could I get to ... ? / I beg your pardon. Would you mind my taking this thing?*). Shu bilan birga, ma'ruzachi tavbani his qilmaydi, himoya izlamaydi, lekin rasmiy kechirim so'rash yordamida u kelajakdagi harakatini oqlaydi. Ko'chada, bino ichida to'qnashuv yoki kichik (kutilmagan, ammo muqarrar) zarar yetkazilgan taqdirda, xushmuomalalik konvensiyasi tuzatuvchi uzr so'rashni talab qiladi.

XULOSA

Rus va ingliz til madaniyatida kechirim so'rashning kommunikativ ssenariysi ma'ruzachining odob-axloq qoidalarini bilishiga asoslanadi, bu Britaniya kommunikativ madaniyatida uzoqlashish va nopoklik konvensiyalarini buzish sifatida qabul qilinadi. Kechirim so'rashning pragmatikasi shaxslararo munosabatlarning nomutanosibligini tiklash uchun nutq aktini aktuallashtirish bilan birga keladigan shartlarning kombinatsiyasiga bog'liq bo'lib, tanlangan ekspertizada namoyon bo'ladi. Ingliz tilida kechirim so'rashning kichik va juda ko'p sonli vositalariga qaramay, uning dolzarbligi turli maqsadlar va sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin, bu haqiqiy va rasmiy uzrlarni ajratishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida tabiati va ijtimoiy konvensiyalarning (axloqiy konvensiyalar, jismoniy, psixo-emotsional va kommunikativ masofani saqlash konvensiyalari) buzilishi darajasi va ssenariyda kechirim so'rash nutqining o'rni jihatidan farq qiladi.

"Nutqiy ta'sir ko'rsatish va uning natijasiga erishishga mo'ljallangan nutqiy muloqot turida so'zlovchi nutqi perlokutiv vazifa bajarishga yo'naltiriladi. So'zlovchi muloqotdoshiga nutqiy ta'sir ko'rsatib, uni biror bir xatti-harakatni bajarishga turtki beradi"[5].

Demak, xulosa qilib aytganda, nutqiy muloqot shaxslararo munosabatni aks ettiruvchi muloqot turi, kishilarning kommunikativ maqsadini amalga oshirish usuli, bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi verbal va nonverbal tarkibiy qismlar ishtirokida tuzilgan nutqiy aktlar jamlanmasidir. Nutqiy muloqot rasmiy nutqning qaysi sohasida qo'llanilmasin, avvalo, o'zbek tili meyorlarining to'g'ri qo'llanilishi, bugungi soha terminlarning nutqda to'g'ri ishlatilishi bilan ham belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Акбарова Z. O'zbek tilining murojaat shakllari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 25
2. Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка. Автореферат дисс. На соискание уч. ст. канд. филол. наук. – Ташкент, 1987.
3. Дюженко Г.А. Документная лингвистика. – М.: Статистика, 1975.; Головач А.С. Оформление документов. Киев-Донецк: Высшая школа, 1983.; Веселов П.В. Современное деловое письмо в промышленности. – М.: Изд-во стандартов, 1970.; Лосев В.И., Кузнецова Т.В. Основы делопроизводства. – М.: Экономика, 1975.; Бондырова Т.Н. Секретарское дело. – М.: Высшая школа, 1989.; Лихачева М.Т. Организация делопроизводства в научных учреждениях. – М.: Экономика, 1986.
4. Гойхман О.Я. Речевая коммуникация // <https://staff.tiiame.uz/storage/users/83/books/oUI3T26JvJSI5fIE5KsoJdzQ1z3L9D7BOFGQ04P2.pdf>
5. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол. фан. ...д-ри. дисс. – Тошкент, 2001; Yo'ldosheva X. Baddiy matnda ijtimoiy xoslangan birliklar. *Til, ta'lim, tarjima* 3-son, 4- jild.; Нарходжаева Х. “Ўзбек терминологияси масалалари”. – Қарши: Intellect, 2022.; Narxodjayeva X. rasmiy nutqda lingvomadaniy xususiyatlar.//Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot nomli ilmiy, masofaviy va onlayn konferensiya. 2022.
6. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993.
7. Иванова В.И. Лингвистика речевого общения // Вестник ТвГУ. Серия. Филология. –Тверь, 2016. – № 4. – С. 45.
8. Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. – М.: рукопис. Памятники древней Руси, 2009. – С. 512.
9. Насридинов М., Усмонова Д. Exposition Functions In The Novel “The Jungle Book”. *International Journal of Literature And Languages*, 2(05), 2022. – P. 22–28.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 53.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 636.
12. Якобсон Р.О. Речевая коммуникация / Якобсон Р.О. Избранные работы. – М.: Прогресс, 1985. – С. 306-319.
13. Васлидин о'ғли М. Н., Норхўжаевич М. О. Comparative Typology of Verbal Means Expressing the Concept of “Goal” in Languages with Different Systems. *Central Asian Journal Of Literature, Philosophy And Culture*, 2 (12), 2021. – P. 51–55.